

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗIRLIGI

Samarqand davlat veterinariya medisinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetи

Axborot texnologiyalari kafedrasи

Sohada axborot kommunikasiya texnologiyalari fanidan ma’ruza matni

Mavzu 6. Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari



Samarqand -2023 yil

Tuzuvchi: Urdushev Xamrakul

Taqrizchilar:

Mamatkulov N., f.-m.f.n., SamDVMCHBU “Tabiiy fanlar” kafedrasi dotsenti

Akbarov H.O’., i.f. bo'yicha f.d. (PhD), Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Iqtisodiyot, barqaror qishloq xo'jaligi va raqamli texnologiyalar kafedrasi katta o'qituvchisi

**“Ma’lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari” mavzusi bo‘yicha
ma’ruzani olib borish texnologiyasi**

Talabalar soni 25-70	2 soat
Mashg‘ulot shakli	Ma’ruza- kuzatish
Ma’ruza rejasi	Ma’lumotlar bazasi va uning turlari; Ma’lumotlar bazasini arxitekturasi; Ma’lumotlar bazasini klassifikasiysi; Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari; Microsoft Access ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT); Ma’lumotlar tiplari bilan ishlash usullari; Microsoft Accessning asosiy ob’ektlari; Katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data) bilan ishlash texnologiyalari
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi	Talabalarga axborot xavfsizligi, axborotlarni himoyalashning texnik va dasturiy vositalari va axborotlarni himoyalash usullarini o‘rgatish
Pedagogik vazifalar: -axborot va axborot xavfsizligi -axborotlarni himoyalashning texnik vositalari -axborotlarni himoyalashning dasturiy vositalari -axborotlarni himoyalash usullari	O‘quv faoliyati natijalari: -axborot va axborot xavfsizligi tushunchasiga ega bo’ladilar -axborotlarni himoyalashning texnik vositalari bilan tanishadilar -axborotlarni himoyalashning dasturiy vositalari xaqida tayanch bilimlarga ega bo’ladilar -axborotlarni himoyalash usullarini o’rganadilar
O‘qitish usullari	Ma’ruza, namoyish, aqliy hujum, insert texnikasi.
O‘qitish vositalari	Doska, videoproektor, topshiriqlar, tarqatma materiallar.
O‘qitish shakllari	Frontal, kollektiv, guruhdha ishlash.
O‘qitish sharoiti	Ortexnika bilan jihozlangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Kuzatish, og‘zaki baholash, savol- javob, test savollari.

6-mavzu. Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari

Reja: Ma'lumotlar bazasi va uning turlari; Ma'lumotlar bazasini arxitekturasi; Ma'lumotlar bazasini klassifikasiyasi; Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari; Microsoft Access ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT); Ma'lumotlar tiplari bilan ishslash usullari; Microsoft Accessning asosiy ob'ektlari; Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) bilan ishslash texnologiyalari

Ma'lumotlar bazasi. Ma'lumotlar bazasining turlari; Ma'lumotlar bazasini loyihalashtirish va strukturalash; Ma'lumotlar bazasining ob'ektlari; Ma'lumotlar bazasining modellari

Adabiyotlar:

1. Kenjaboev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.Sh. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti, 2017 yil. – 408 bet.
 2. Aminov S.M., Muxamadiyev S.I., Rasulov S.Sh. Axborot kommunikatsion texnologiyalar fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma. –T.:ToshDAU, 2020 yil. – 248 bet.
 3. Шыныбеков Д.А., Ускенбаева Р.К. и др. Информационно-коммуникационные технологии. 1-е изд. Учебник. – Алматы: Издание АО «Международный университет информационных технологий» 2017 год. – 559 стр.
 4. Misty E. Vermaat, Susan L. Sebok, Steven M. Freund. Jennifer T. Campbell, Mark Frydenberg. Discovering Computers: Tools, Apps, Devices, and the Impact of Technology (textbook). Cengage Learning. 20 Channel Center Street. Boston, MA 02210. USA, 2016 year. – 691 pages.
 5. Delov T.E.. Bulutli texnologiyalar.(O'quv qo'llanma) .–T.: «Nihol print» OK, 2021 -196 b. (<https://lib.cspl.uz/index.php?newsid=4324>) 5.Urdushev X., Mavlyanov M., Akbarov X. Qishloq xo'jaligi va chorvachilik masalalarini yechishda amaliy dasturlardan foydalanish. Qishloq xo'jaligida axborot texnologiyalari fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy qo'llanma.-Samarqand: SamVMI, Nashriyot-tahririyat bo'limi. 2018. -48 b.
 6. Bekarevich, Yu. B. Samouchitel Access 2016 / Yu. B. Bekarevich, N. V. Pushkina. — SPb.: BXV-Peterburg, 2017. — 480 s.: il. – (Samouchitel) (Elektron resurs).
 7. Bekarevich, Yu. B. Samouchitel Access 2010 / Yu. B. Bekarevich, N. V. Pushkina. — SPb.: BXV-Peterburg, 2011. — 432 s.: il. + CD-ROM -(Elektron resurs).
- <https://bookland.com/download/1/10/107895/sample.pdf>
8. Kovaleva M.A. Создание баз данных в Microsoft Access. Uchebno-metodicheskoye posobiye. – M.: Mir nauki, 2019. – Setevoye izdaniye. Rejim dostupa: <https://izd-mn.com/PDF/35MNNPU19.pdf> (Elektron resurs)

9. Vishneveskiy V.Yu., Starchenko I.B., Ledyayeva V.S. Rabota s Microsoft Office 2016: Access, Visio. Metodicheskoye rukovodstvo k vyipolneniyu laboratornyx rabot po kursu «Informacionnye texnologii». – Rostov-na-Donu: Izd-vo YuFU, 2016. – 39 s. (Elektron resurs)

10. Тарасов В.Л. Работа с базами данных в Access 2010. Часть 2: Учебно-методическое пособие. – [электронный ресурс]. – Нижний Новгород: Нижегородский госуниверситет, 2014. – 62 с.

11. Основные понятия и принципы работы Access 2010: методические указания к лабораторно-практическим занятиям для студентов факультета ветеринарной медицины очной и заочной форм обучения/ Новосиб. гос. аграр. ун-т; сост.: И.В. Наумкин, М.В. Лазарева.– Новосибирск: НГАУ, 2015.-32 с.

12. Урдушев Х., Мавлянов М. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari. Microsoft Access. Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanidan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar uchun metodik qo'llanma. 6-qism. Samarqand: SamDVMCHBU, Nashriyot-tahririyat bo'limi. 2023. - 63 b

6.1. Ma'lumotlar bazasi va uning turlari

Ma'lumot (berilgan)lar ma'lum bir shaklda taqdim etilgan axborot bo'lib, u inson yoki axborot vositasi tomonidan yig'ish, saqlash va qayta ishlashni avtomatlashtirish imkonini beradi.

Ma'lumotlar - doimiy saqlash, uzatish va (avtomatik) qayta ishlashga yaroqli ma'lumotlarni ifodalash shakli.

Ma'lumotlar bazasi (MB) bu — tartiblangan ma'lumotlarni saqlovchi va qayta ishlovchi axborot modeli hisoblanadi. Soddaroq qilib aytganda, bir xil turdag'i axborotlarni o'zida saqlovchi va berilgan so'rovlar orqali ularni taqdim etuvchi model.

Misollar: bir xil turdag'i kitoblarni o'zida saqlaydi kitob javoni, bir tipdag'i ism, familiya, telefon raqamlari kabi ma'lumotlarni saqlovchi telefon kitobchasi, talabalar ismi familiyasi, fanlar nomi, yil va sanalar, davomat, o'zlashtirish kabi ma'lumotlarni saqlovchi guruh jurnali MB bo'ladi.

Ma'lumotlar bazasi nuqtai nazaridan ma'lumotlar deyilganda, ma'lum bir shaklda qayd qilingan, qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun yaroqli xabar tushuniladi

Ma'lumotlar bazasi deganda, ma'lumotlarni shunday o'zaro bog'langan to'plami tushuniladiki, u mashina xotirasida saqlanib, maxsus ma'lumotlarni bazasini boshqarish tizimi to'ldirilishi, o'zgartirilishi, takomillashtirilishi mumkin.




Sodda qilib aytganda ma'lumotlar bazasi ma'lumotlar saqlanadigan joy. U mijoz-server arxitekturasini o'z ichiga oladi. Masalan onlayn-do'konlar, kino saytlari yoki aviachiptalar... Mijoz byurma beradi va tizimuning ma'lumotlarini MBda saqlaydi.

Объект – bu ixtiyoriy predmet, hodisa, tushuncha yoki jarayon bo'lib, ob'ektlar majmuasi predmet soha deyiladi.

Ахборот тизими - axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari.


Masalan, **HEMIS**-Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi. HEMIS axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi.

Ma'lumotlar bazasi texnologiyasi vositalari tomonidan yaratilgan axborot tizimlari **ma'lumotlar banklari** deb ataladi.




Demak, **MBBT** barcha jarayonlarni amalga oshiradi. Ma'lumotlar bazasi faqat ma'lumotlarni saqlaydi, qolgan barcha ishlarni **MBBT** bajaradi.

Strukturalash deganda - bu obyektlar va ma'lumotlarning o'zaro bog'lanishini tasvirlash usullari haqidagi kelishuvni kiritish tushuniladi.



**1)Fakultetler, 2)Ta'lif yo'nalishlari, 3)Bosqichlar, 4)Guruhrar,
5)Talabalar, ...**



Talabaarning IFSH; Fanlarning nomi va shakli; Mashg'ulot o'tilgan oy va sana; Dars o'tilgan juftliklar; Davomat ko'rsatkichlari; O'zlashtirish ko'rsatkichlari; ...

Shunday qilib, MBning eng oddiy ta'rifi: **ma'lumotlar bazasi tartiblashtirilgan axborotlarni tizimlashtirilgan shaklda saqlashdir**. Shu bilan birga, tartibga solish, saqlash, tizimlashtirish va boshqarish turlari har xil bo'lishi mumkin. Va ularning har biri muayyan talablarga javob berib, muayyan harakatlarni amalga oshirishga mo'ljallangan bo'ladi.

Ma'lumotlar bazasi- obyektga tegishli ma'lumotlardan iborat bo'ladi

Ma'lumotlar bazalarini turlari. Ma'lumotlar bazasi tizimi katta hajmdagi ma'lumotlarni boshqarish uchun tuzilgan. Ma'lumotlarni boshqarish ikkita narsani talab qiladi: - **ma'lumotlarni saqlash uchun ularni strukturasini aniqlash;** - **ma'lumotlarni boshqarish uchun tizimni ta'minlash.**

MB turlari. Ma'lumotlar bazasi tizimi -o'zaro bog'langan ma'lumotlar to'plami va bu ma'lumotlardan foydalanish imkonini beruvchi dasturdan iborat.

Ma'lumotlar modeli qo'llanishiga ko'ra:

1)**Ma'lumotlarni ierarxik modelida** - ma'lumotlar bazasi daraxtsimon ko'rinishda ifodalanadi;

2)**Ma'lumotlar bazasini tarmoq modelida**- ma'lumotlar tarkibi tarmoq ko'rinishi qo'llab-quvvatlanadi. Tarmoq modeli ma'lumotlarni turli tuman berilganlarini ixtiyoriy *graf* ko'rinishida ifodalaydi.

3)**Ma'lumotlar bazasini relyatsion (munosabat) modeli**- ma'lumotlarni jadvallar ko'rinishda ifodalaydi.

Demak, tuzilishiga ko'ra ma'lumotlar bazasi uchta turi ajratib ko'rsatiladi: **ierarxik (daraxtsimon), tarmoqli, relyatsion (munosabatli, jadvalli).**


Ierarxik ma'lumotlar bazasi deganda, uning elementlarini shajaraga (ota-oni va bolaga) bo'lish tamoyiliga muvofiq ma'lumotlarni saqlash va tuzishni amalga oshirish tushuniladi.

Bu model - pastki pog'onadagini yuqori pog'onadagiga bo'yishin tartibida joylashgan elementlar to'plamidan iborat bo'ladi va ag'darilgan daraxt(graf)ni tashkil etadi.


Model sath, tugun, bog'lanish kabi parametrlar bilan tavsiflanadi.

Ishlash tamoyili quyi sathdagi bir necha tugunlar bog'lanish yordamida yuqoriroq sathdagi bitta tugun bilan bog'langan bo'ladi

Iyerarxik modeli





MB modelining iyerarxik daraxtsimon strukturasi




Misollar. **Windows** operatsion tizimida strukturalashtirish ierarxik ko'rinishda amalga oshirilgan. Barcha Internet resurslar ierarxik tamoyil bo'yicha qurilgan.

Tarmoqli model. Uning arxitekturasi ierarxikga o'xshaydi, shajara elementlari mavjud. MB elementlari har qanday yo'nalishlar bilan bog'lanishi mumkin.

Ya'ni, har bir element ierarxiyasidan qat'iy nazar, har qanday boshqa elementlar bilan bog'lanishi mumkin



Relyasion model jadval tuzilmasiga ega. Unda ma'lumotlar adresi satr va ustunlar kesishmasi bilan aniqlanadi. Bu modelda ustunlar-maydonlar, satrlar esa yozuvlar deb ataladi. Maydonlar MBning tuzilmasini, yozuvlar esa, unda joylashgan ma'lumotlarni tashkil etadi.



6.2.Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) - bu ma'lumotlar bazasini hosil qiluvchi, ma'lumotlarni qayta ishlovchi va qidiruvchi tizim hisoblanadi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) — bu ma'lumotlar bazasini hosil qiluvchi, ma'lumotlarni qayta ishlovchi va qidiruvchi tizim hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda, MBBT barcha jarayonlarni amalga oshiradi. Ma'lumotlar bazasi faqat ma'lumotlarni saqlaydi, qolgan barcha ishlarni MBBT bajaradi.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) - bu til va dasturiy vositalar majmui bo'lib, u ma'lumotlar bazasini qurish va undan ko'plab foydalanuvchilarni foydalanishga mo'ljallangan.

Demak, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi - bu kompyuterda ma'lumotlar bazasini tuzish va ularni boshqarishning dasturiy tizimdir.

MBBT- ma'lumotlar bazasini yaratish, uni dolzarb holatda ushlab turish, kerakli axborotni topishni tashkil etish va boshqa xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'ladigan dasturiy va til vositalari majmuasidir.

MBBTni tuzishni dasturiy vositalari

- DBASEдастури;
- Microsoft Access;
- Microsoft For Pro For DOS;
- Microsoft For Pro For WINDOWS;
- Paradox for DOS; Paradox for WINDOWS

Bu tizimlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- 1.MBda joylashgan ma'lumotlarni ko'rish
- 2.MBg'a yangi yozuvlarni kiritish
- 3.MBning yozuvlarini tahrirlash
- 4.MBdan tegishli hisobotlarni olish
- 5.MBning yozuvlaridan nusxa olish va boshqalar.

6.3.Microsoft Access ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT)




MS Access 2003



MS Access 2007



MS Access 2010



MS Access 2013

Microsoft Access – oddiy va murakkab bo'lgan ma'lumotlar bazalari bilan ishslash imkoniyatini beradigan ilovadir.

Microsoft Accessda relyatsion-munosabatlari ma'lumotlar bazalari tuziladi. Ular turli xil toifadagi axborotlar orasidagi munosabatlarni aniqlash imkoniyatini beradi.

Ma'lumotlar bazasini **asosini** unda saqlanadigan ma'lumotlar (berilganlar) tashkil qiladi. Biroq **Microsoft Access**da, yana boshqa muhim komponentlar ham mavjud bo'lib, ularni **ob'ekt**lar deb atash qabul qilingan.

Yuqorida qayd qilganimizdik, **MS Access MBBT** ob'ektlarning bir nechta turlari bilan ishlaydi.

Таблицы (Jadvallar)- bazada ma'lumotlarni saqlashni asosiy birligi. Relyatsion ma'lumotlar bazasi ko'plab o'zarobog'langan jadvallarga ega bo'lishi mumkin. Jadvallar ustida bajariladigan amallar: ko'rish va yangilash, saralash, filtrlash va chop qilishdan iborat bo'ladi.

Запросы (So'rovlar) - u bilan, jadvallardagi berilganlardan formallahgan tarzda tanlashlar amalga oshiriladi. So'rovlar asosida ma'lumotlar tartiblanadi, filtirlanadi, ajratib olinadi, o'zgartiriladi, birlashtiriladi, ya'ni qayta ishlanadi. So'rovlarning bir-nechta turlari mavjud bo'lib, ularning eng soddalari va ko'p ishlatiladiganlari – bu tanlamalarga ko'ra so'rovlarni amalga oshirishdir. Tanlamalarga ko'ra so'rovarda bazaviy – asosiy jadvallardan, so'rovlardan shartlariga ko'ra kerakli, natijaviy jadvallar hosil qilinadi.

Формы (Shakllar)- bazaga yangi ma'lumotlar kiritish yoki mavjud bazalarni ko'rish uchun ishlatiladigan ob'ektlardir.

Отчеты (Hisobotlar) - bu ob'ektlar, ma'lumotlar foydalanuvchilarga chop qilish uchun qulay bo'lgan shakllarda uzatish uchun qo'llaniladi.

Макросы (Макрослар)-bu makrobuyruqlardir. Baza bilan ishlashda qandaydir amallar ko'p marotaba ishlatilsa, ularni, ya'ni bir nechta buyruqlarni bitta makrosga birlashtirib guruhlanadi va ularni ishlatish uchun klavishlar kombinatsiyalari shakllantiriladi.

Модули (Modullar) –dasturiy protseduralar bo'lib, ular qandaydir dasturlash tillarining birida yozilgan bo'ladi.

Xujjatlar sohasi, istalgan rejimda ochiladigan ma'lumotlar bazasi ob'ektining ish sohasi.

Microsoft korporatsiyasi tomonidan MS Accessning quyidagi versiya-lari ishlab chiqilgan (Manba: https://ru.wikipedia.org/wiki/Microsoft_Access):

2003: Access 2003 ([Microsoft Office 2003](#) uchun);

2007: Microsoft Office Access 2007 ([Microsoft Office 2007](#) uchun);

2010: Microsoft Office Access 2010 ([Microsoft Office 2010](#) uchun);


2012: Microsoft Access 2013 ([Microsoft Office 2013](#) uchun);

2015: Microsoft Access 2016 ([Microsoft Office 2016](#) uchun).

Yuklash.


Пуск-Программы-Microsoft Office - Microsoft Access 2010

1. Илова yuklanganda **Файл vkladka**sini **Создать** buyrug'i faol holda юқланади foydalanuvchiga yangi **MB** tuzish va uni diskni foydalanuvchi ko'rsatgan papkasida saqlashni taklif әтади.



Ilova yangi tuziladigan MBga **Database1**, **Database2**, **Database3**,... nomlarni avtomatik tarzda beradi. Yangi MB tuzish uchun Imya fayla maydonida fayl nomi ёзилади va **Создать** tugmasi bosiladi.

Fayllar komputer xotirasida **MS Access 2000-2003** larda ***.mdb**, **2007** dan boshlab ***.accdb** kengaytmasi bilan saqlanadi.



Database1. accdb, Database10. Accdb, Urdushev X. Accdb, ...


2. Natijada **Microsoft Access** ni ish oynasi ochiladi. Interfeysi:

1) Sarlavha satri.

2) Вкладкalar lentasi. У **Главная** (Asosiy), **Создание** (Tuzish), **Внешние данные** (Tashqi ma'lumotlar), **Работа с базами данных** (MB bilan ishslash), **Поля** (Maydon) va **Таблица** (Jadval) vkladkalaridan iborat.


3) Faol vkladkaga oid buyruqlar maydoni.

4) Ma'lumotlar bazasini ishchi sohasi. U ikkita chap va o'ng panellardan iborat bo'ladi.



5) Holatlar satri.

Access fayliga nom berilib xotiraga olinsa u **Fayl** vkladkasi oynasini chap tomonidagi panelidagi ro'yxatdan joy oladi.



Мавзуга оид Интернет ахборот ресурслари

[https://spravochnick.ru/bazy dannyh/bazy dannyh i subd na primere mi](https://spravochnick.ru/bazy_dannyh/bazy_dannyh_i_subd_na_primere_microsoft_access/interfeys_ms_access_2010/)
[crosoft access/interfeys ms access 2010/](https://spravochnick.ru/bazy_dannyh/bazy_dannyh_i_subd_na_primere_microsoft_access/interfeys_ms_access_2010/) Интерфейс MS Access 2010

<https://support.microsoft.com/ru-ru/office/обучение-работе-с-access-a5ffb1ef-4cc4-4d79-a862-e2dda6ef38e6> Обучение работе с Access

<https://accesshelp.ru/samouchitel-ms-access/> Самоучитель MS Access -
Базы данных Access

<https://gb.ru/blog/bazy-dannykh-access/> Базы данных Access: функции, режимы работы и элементы

<https://geekon.media/sozdanie-bazy-dannyx-v-ms-access-2007/>

Создание базы данных в Access пошагово: таблицы, схемы данных, запросы, формы

<https://nastroyvse.ru/programs/review/kak-rabotat-s-microsoft-access.html> Как работать с базами данных Microsoft Access

<https://nastroyvse.ru/programs/review/kak-rabotat-s-microsoft-access.html> Как работать с базами данных Microsoft Access

https://tpnikishina.ucoz.ru/it/user-files/samouchitel_access_2010.pdf
samouchitel_access_2010.pdf

Nazorat savollari

- 1) Ma'lumotlar bazasida ma'lumot deganda nima tushuniladi?
 - 2) Ma'lumotlar bazasi tushunchasini tasniflang
 - 3) Ma'lumotlar bazasiga misollar keltiring
 - 4) Ob'ekt tushunchasini tasniflang.
 - 5) Axborot tizimi nima?
 - 6) HEMIS platformasida sizga oid qanday ma'lumotlar saqlanadi?
 - 7) MBSiga misollar keltiring.
 - 8) Ma'lumotlar bazasi qanday turlarga ajratiladi?
 - 9) Ierarxik ma'lumotlar bazasi tushunchasini tasniflang
 - 10) Tarmoqli ma'lumotlar bazasi tushunchasini tasniflang
 - 11) Relyatsion (munosabatli, jadvalli) ma'lumotlar bazasi tushunchasini tasniflang.
 - 12) Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) deganda nimani tushunasiz?
 - 13) MBBTni tuzishni dasturiy vositalari nomini ayting.
 - 14) Access qanday versiyalarini bilasiz?
 - 15) Microsoft Access da qanday ob'ektlar qo'llaniladi?
 - 16) Microsoft Access interfeysini tasniflang.
 - 17) Microsoft Access faylining kengaytmasi nechta harfdan iborat bo'ladi?

Samirqand DVMCHBU "Axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti Kamrakul Urdushev tomonidan "Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari" fanidan "Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari" mavzusida tayyorlangan ma'ruza matniga TAQRIZ.

Urdushev X. tomonidan "Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari" fanidan "Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari" mavzusiga tayyorlangan ma'ruza matni mazkur fanning o'quv dasturi va ishchi o'quv dasturi (Syllabus)ga mos holda ishlab chiqilgan. Ma'ruza matni ikki soatga mo'ljallangan bo'lib, ma'ruza rejasi, texnologik xaritasi, ma'ruzaning bayoni hamda foydalanilgan va tavsiya etiladigan resurslar ro'yxatidan iborat.

Ma'lumki, ma'lumotlar bazasi (MB) bu — tartiblangan ma'lumotlarni saqlovchi va qayta ishlovchi axborot modeli hisoblanadi. Soddarroq qilib aytganda, bir hil turdag'i axborotlarni o'zida saqlovchi va berilgan so'rovlar orqali ularni taqdim etuvechi modeldir. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) — bu ma'lumotlar bazasini hosil qiluvchi, ma'lumotlarni qaytu ishlovchi va qidiruvchi tizim hisoblanadi. Qisqa qilib aytganda, MBBT barcha jarayonlarni amalga oshiradigan dasturiy ta'minotdir. Ma'ruza matni yuqorida qayd etilgan ikkita tayanch tushunchalar asosida qurilgan. Mavzuga ajratilgan soat hajmidan kelib chiqib MB va MBBTni sohaga qo'llash yo'llari ko'rsatib berilgan.

Tayyoerlangan ma'ruza matnida mavzuga oid yangiliklar va Internet axborot resurslarining manzillari keltirilgan.

Ma'ruza mashg'uloti mavzusi rejalgara muvofiq yoritilgan. Mavzu bo'yicha tayyoerlangan taqdimot va tarqatma materiallar mavzuning tayanch tushunchalarini qamrab olgan.

Urdushev X. tomonidan tayyoerlangan "Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari" mavzusidagi ma'ruza matni uslubiy jihatdan talab darajasida ishlab chiqilgan. Ma'ruza matnini o'quv mashg'ulotida foydalanishga tavsiya qilaman.

SamDVMChBU "Tabiiy fanlar kafedrasi"
dotsenti

ning imzosini

Mamatkulov N.

Shahridardon davlat veterinariya meditsinası,
chirurgichilik va biotexnologichalar universiteti
Xalqaroqslig'li bo'limi bosqich fakulteti

Гуфаров
Гуфаров

E'LON

"Biotechnologiya" fakultetining 1-bosqich 103 guruh talabalar uchun "Axborot texnologiyalari" kafedrasi dozentti Xamrakul Urdushevning "Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari" fanidan "Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari" mavzusidagi ochiq ma'rura darsi bo'lib o'tadi.

Barva xohlovchi professor-o'qituvchilar halif etiladi.

"Axborot texnologiyalari" kafedrasi

ОБЪЯВЛЕНИЕ

10 октябрь 2023 года в 9:00 ч. в 411 аудитории состоится открытое лекция доцента Хамракула Урдушева по тематике "Информационные коммуникационные технологии в отрасли" на тему "Базы данных и системы управления ими", для студентов 103 группы 1 курса факультета "Биотехнология".

Присоединяются все желающие профессора и преподаватели

ADVERTISEMENT

On October 10, 2023, at 9:00 h. in the 411-auditorium, an open lecture by associate professor. Hamrakul Urdushev on the discipline "Information and communication technologies in the industry" on the topic "Databases and their management systems" will be held for students of 103 groups of the 1st year of the Faculty of Biotechnology.

All interested professors and teachers are invited

Department of "Information Technology"



Akbarov H.O.

Samarqand DV'MCHBU "Axborot texnologiyalari" kafedrasi dozentti Xamrakul Urdushev tononidan "Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari" fanidan "Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari" mavzusida tayyorlangan ma'rura matniga TAQRIZ

Tuzilgan ma'rura matni quyidagi tayanch rejalar (tushunchalarini) qamrab oladi: "Ma'lumotlar bazasi va uning turlari; Ma'lumotlar bazasini arxitekturasi; Ma'lumotlar bazasini klassifikasiyasini; Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari; Microsoft Access ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT); Ma'lumotlar tipilari bilan ishlash usullari; Microsoft Accessning asosiy ob'ektlari; Katta hajmida ma'lumotlar (Big Data) bilan ishlash texnologiyalari".

Shundan kelib chiqib ma'rura matida: ma'lumotlar bazasi (MB) va ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBT)ga oid tayanch tushunchalar va ularning tasniflari atrofichcha yoritilgan, shuningdek ma'lumotlar bazasini boshqarish tizininining maqsadi, ularda - ma'lumotlar ma'lumotlarini saqlash va ma'lumotlardan qilay va samaralari tarzia foydalanishni ta'minlash yo'llari ko'rsatib berilgan. Ma'lumotlarni boshqarish, ma'lumotlarni saqlash uchun ularni strukturasini aniqlash, ma'lumotlarni boshqarish tizimni ta'minlash masalalari misollar orqali ochib berilgan.

Dozent Urdushev X. tononidan "Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari" fanidan "Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari" va "iakchi o'quv dasturi" ga mos holda ishab chiqilgan. Ma'rura matni ikki soatga mo'ljallangan bo'lib, u "ma'rura rejisi", "tayanch tushunchalar", "foydalanilgan adabiyotlar ruyxati" va "nazorat savollari" dan iborat. Ma'rura matnida veterinariya sohasiga oid Internet saytlar va dasturiy iloralar keltirilgan. Urdushev X. tononidan tayyorlangan "Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari" mavzusidagi ma'rura matni ushbuji jihatdan talab darajasida ishab chiqilgan.

Tayorlangan ma'rura matni ma'rura mashg'ulotlarida foydalanishga tavsiya etiladi.

Toshkent DAU Samarqand filiali
Tiqisodiyot, barcharor qishtiqa
xo'jaligi va raqamli texnologiyalar
kafedrasi katta o'qituvchilari
i.f. bo'yicha f.d. (PhD) BO'LIB

